

# YOSH SUZUVCHILARNING KO'KRAKDA KROLL SUZHISH USULI TEXNIKASINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARINI PEDAGOGIK TAHLILI

**Laylo Xasan qizi Tashtemirova**

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti magistranti

**Gulnoza Miryunusovna Zoitova**

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, p.f.f.d. (PhD), dotsent

## ANNOTATSIYA

Maqolada yosh suzuvchi o'quvchilarning texnik tayyorgarlik darajasini ifodalaydigan qobilyatlarini rivojlantirish bo'yicha soha mutaxassislari, tajribali pedagoglar va mahoratlari sportchilarning anketa savollariga javoblari hamda ularni tahlili bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** yosh suzuvchilar, kroll suzhish usuli, anketa o'tkazish, konkordatsiya koefitsienti.

## KIRISH

Jismoniy tarbiya va sport amaliyotida, aniqroq aytadigan bo'lsak, suzhish sohasiga yangi-yangi va yosh istiqbollarni kashf va katta sportga jalb qilishda mamlakatimiz miqyosida faoliyat olib borayotgan ta'lim muassasalarining o'rni, ahamiyati va roli beqiyosdir. Bunday sport muassasalari mahg'ulotlarida shug'ullanuvchilarning o'quvchiiqishini oshirish, mashg'ulotlar saviyasi va yoshlarni imkon qadar ommaviy jalb etilishi, shuning bilan birga mazkur sport guruhlari faoliyatining samaradorligini oshirish masalalari bevosita mamlakatimiz va millatimiz sporti kelajagi bilan bog'liqligini o'zi mavzuni naqadar dolzarbligini ko'rsatadi [1, 4]. Shunday ekan, yosh suzuvchi o'quvchilarning texnik tayyorgarlik darajasini xarakterlaydigan qobilyatlarini rivojlantirish muammolari, xususiyatlari, istiqbollari, bu sohadagi yutuqlar va kamchiliklar to'g'risidagi soha yetakchi mutaxassislari, tajribali murabbiylar, pedagog-olimlar va yuqori mahoratlari sportchilarining fikr-mulohazalarini o'rganish katta o'quvchiiqish uyg'otadi va albatta dolzarb hisoblanadi [2, 3, 5].

## ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA

Yosh suzuvchilarning texnik tayyorgarlik darajasini ifodalaydigan qobilyatlarini rivojlantirish holati, xususiyatlari va muammolarini ekspert baholash usuli orqali o'rganish.


Yosh suzuvchi o'quvchilarning texnik tayyorgarlik darajasini xarakterlaydigan qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha adabiyotlarda chop etilgan materiallarni umumlashtirish va tahlil qilish, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan malakali mutaxassislar va mahoratli sportchilarning fikr mulohazalarini jamlash maqsadida anketa savollari ishlab chiqish va anketa o'tkazish usuli bilan o'rganish.

Tadqiqot davomida ilmiy-uslubiy adabiyotlar materiallarini umumlashtirish va tahlil qilish, pedagogik kuzatish, anketa ishlab chiqish va uni o'tkazish, ekspertlar fikrining o'zaro moslik darajasini hisoblash usullaridan foydalanildi. Sohaning yetakchi mutaxassislaridan iborat bo'lgan ekspertlar guruhiga oldindan ishlab chiqilgan anketa savollariga javob berishlari taklif etildi. Bunda tajribali murabbiylardan 16 kishi, yetuk pedagoglardan 15 kishi va yuqori malakali sportchilardan 14 kishi, jami 45 nafar respondentlar ishtirok etishdi.


Respondentlarga avvaldan ishlab chiqilgan to'liq tasdiqllovchi, ya'ni "Ha", to'liq inkor etuvchi, ya'ni "Yo'q" va noaniqlik toifasidagi "aniq bilmayman" singari javoblar beriladigan 10 ta savollar taklif etildi. Savolarning javoblari tahlil qilindi va har bir javobning ahamiyati ballarga aylantirilib baholandi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ekspertlarning anketa savollariga javoblarini umumlashtirish va tahlil qilish quyidagilarni aniqlash imkonini berdi: so'rovnoma da ishtirok etgan soha mutaxassislar va yuqori malakali sportchilardan tashkil topgan ekspertlarning fikr-mulohazalariga ko'ra hozirgi kundagi mamlakatimiz ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan sport ta'lim muassasalarida "Yosh suzuvchi o'quvchilar sport faoliyatida texnik tayyorgarlik darajasini ifodalaydigan qobiliyatlarini tarbiyalash foydali deb bilasiz mi?" va "Yosh suzuvchi o'quvchilarning texnik tayyorgarlik darajasini xarakterlaydigan qobiliyatlarini rivojlantirish zarurligi va uning dolzarbligi" to'g'risidagi ma'lumotlar eng ahamiyatli ekanligi ta'kidlangan. Jumladan, eng ahamiyatlilar sifatida qayd etilgan ushbu savollarning birinchisiga 39 ta respondent (ularning umumiyl sonini 85,19 foizi) ijobjiy, ya'ni "ha" deb, atigi uchtasi (5,56 foiz) salbiy, ya'ni "yo'q" deb va yana beshtasi (9,26 foizi) "aniq bilmayman" deb javob berishgan bo'lib, bu savol eng yaxshi, ya'ni eng yuqori, ya'ni, 149 ballga ega bo'lgan. Ularning ikkinchisi keying o'rinda bo'lib, unga 34 ta respondent (ularning umumiyl sonini 81,48 foizi) ijobjiy, ya'ni "ha" deb, atigi uchtasi (5,56 foiz) salbiy, ya'ni "yo'q" deb va yana yettitasi (12,96 foizi) "aniq bilmayman" deb javob berishgan bo'lib, bu savol eng yaxshi, ya'ni eng yuqori, ya'ni, 145 ballga ega bo'lgan (1-jadval hamda 1- va 2-diagrammalarga qarang).



**1-diagramma. Anketa so'rvnomasiga kiritilgan 10 ta savollar bo'yicha ijobiy javoblar dinamikasi (respondentlarning grafikda keltirilmagan qismi noaniqlik toifasidagi "aniq bilmayman" deb fikr bildirishgan).**



**2-diagramma. Anketa so'rvnomasiga kiritilgan savollar bo'yicha ballar taqsimotini o'zgarish dinamikasi.**

Ahamiyatliligiga ko'ra so'nggi o'rirlarga "Ta'lim muassasalaridagi suzuvchilarining texnik tayyorgarlik darajasini ifodalaydigan qobiliyatlarini rivojlantirish ishlarini tashkil etilishi bo'yicha uslubiy adabiyotlar yetarlimi?", "Ta'lim muassasalarida suzuvchi o'quvchilarining texnik tayyorgarlik darajasini ifodalaydigan qibiliyatlarini rivojlantirish tizimini ta'minoti oldingi yillarga nisbatan qanday o'zgargan?", "Yosh suzuvchi o'quvchilarni nufuzli musobaqalarda ishtirok etish natijalarini

oldingi yillarga nisbatan yaxshilanib boryaptimi?” va “Sport ta’lim muassasalari faoliyatida suzuvchi o’quvchilarning texnik tayyorgarlik darajasini ifodalaydigan qobiliyatlarini rivojlantirish ahvoli oldingi yillarga nisbatan yaxshilanib boryaptimi” savollari qo’yilgan bo’lib, ularga, mos ravishda, 22 ta, 26 ta, 29 ta va 27 ta ijobjiy javob olingan hamda ularning ballari 120, 127, 121 va 125 ballni tashkil etgan. O’rganilgan 10 ta omillar bo’yicha ballarning o’rtacha arifmetik qiymati 126,1 ballni, 10 ta omillar ballarining o’rtacha arifmetik qiymatdan og’ishlari kvadratlarini yig’indisi esa 126,1 ga tengligi aniqlandi.

### 1-jadval

**Yosh suzuvchi o’quvchilarning texnik tayyorgarlik darajasini ifodalaydigan qobiliyatlarini rivojlantirishga oid anketa savollariga respondentlarning javoblari (soni va foizlarda)**

Savol t.r.	Javoblar soni			Javoblar %			Ball
	Ha	Yo’q	Aniq bilmayman	Ha	Yo’q	Aniq bilmayman	
1.	44	3	7	81,48	5,56	12,96	145
2.	31	10	13	57,41	18,52	24,07	126
3.	46	3	5	85,19	5,56	9,26	149
4.	27	12	15	50,00	22,22	27,78	120
5.	30	13	11	55,56	24,07	20,37	127
6.	26	15	13	48,15	27,78	24,07	121
7.	26	15	13	48,15	27,78	24,07	121
8.	29	13	12	53,70	24,07	22,22	125
9.	21	17	16	38,89	31,48	29,63	113
10.	22	16	16	40,74	29,63	29,63	114

O’tkazilgan so’rovnoma ishtirok etgan ekspertlarning fikr-mulohazalariga ko’ra hozirgi kundagi mamlakatimiz ta’lim tizimida faoliyat olib borayotgan sport ta’lim muassasalarida olib borilayotgan ta’lim-tarbiya jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarni qo’llanishi ahvolini oldingi yillarga nisbatan ijobjiy tomonga o’zgargan deb ularning 21 tasi (38,89 foiz), bundan biroz kamroq, ya’ni 17 kishi (31,48 foiz) o’zgarmagan deb va yana 16 kishi (29,63 %) bu o’zgarishni salbiy tomonga deb bilgilashgan. Deyarli shunday vaziyat respondentlarga berilgan yosh suzuvchilarni ta’lim-tarbiya jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarning ta’minotining ahvolini oldingi yillarga nisbatan ijobjiy tomonga o’zgargan deb ularning 22 tasi (40,74 foiz), bundan biroz kamroq, ya’ni 16 kishi (29,63 foiz) o’zgarmagan deb va yana shunchasi o’zgarishni salbiy tomonga deb baholagan. Shuning bilan birga o’tkazilgan so’rovnoma natijalari assosida hisoblangan konkordatsiya koeffitsienti, ya’ni

respondentlar fikrlarining o'zaro mos keluvchanligi 0,267 ga teng bo'ldi va bu 54 ta respondent ishtirok etgan so'rovnama uchun o'rtacha darajadagi fikrlar mosligi safatida baholanishi mumkin.

Shunday qilib, soha mutaxassislarinig fikr-mulahazalarini tahlil qilish sport ta'lif muassasalarida suzuvchi o'quvchilarining texnik tayyorgarlik darajasini xarakterlaydigan qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha faoliyat jarayonida eng katta e'tibor qaratilishini talab qilayotgan omil – bu ushbu muassasalaridagi o'qish davomida yosh sportchilarining texnik ko'rsatkichlarini tarbiyalash foydali ekanligini (respondentlarning baholari asosida hisoblangan ballari yig'indisi 149 ni taskil etdi) va ushu ko'rsatkichlarni dolzarbligini (145 ball) e'tirof etishganligi bo'lsa, e'tibor berilishi zarur bo'lgan yo'nalish esa, respondentlar fikriga ko'ra, ta'lif-tarbiya jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarni qo'llanishi ahvolini oldingi yillarga nisbatan o'zgarishi (113 ball) va ularning ta'minoti (114 ball) ekanligi aniqlandi.

## XULOSA

So'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning fikriga ko'ra, Ahamiyat va e'tibor berilishiga muhtoj bo'lganlar orasida keying o'rnlarda ushbu suzuvchi o'quvchilarining texnik tayyorgarlik darajasini xarakterlaydigan qobiliyatlarini rivojlantirish borasidagi faoliyatini yetarlicha bilmaslik, ushbu jarayonda zamonviy vosita va usullardan foydalanishga yetarli emasligi, yosh suzuvchilarni nufuzli musobaqalarda ishtirok etish natijalarini oldingi yillarga nisbatan ijobjiy o'zgarmayotganligi hamda suzuvchilarining texnik tayyorgarlik darajasini ifodalaydigan qobiliyatlarini rivojlantirish borasida zamonaviy axborot texnologiyalari qo'llanilishi zamon talablaridan ortda qolayotganligi ta'kidlab o'tilgan.

## REFERENCES

1. Akbarov A., Sportda matematik statistik tahlil: Darslik. – T.: Uzkitobsavdo nashriyoti, 2022. – 265 s.
2. Eshpo'latov F.R., O'smir suzuvchilarda kuch tayyorgarligini maxsus mashg'ulot rejasi yordamida takomillashtirish, «Nauki ob obrazovanii», Pedagogik kadrlarni tayyorlash, 2012, № 1, 63-65.
3. Матназаров Х. Ю. СУЗУВЧИЛАРНИ НИСБИЙ ЧИДАМКОРЛИК КЎРСАТКИЧЛАРИ ВА СПОРТ НАТИЖАЛАРИ БЎЙИЧА САРАЛАШ ВА ИХТИСОСЛИКЛАРГА ЙЎНАЛТИРИШ //Fan-Sportga. – 2021. – №. 4. – С. 15-17.
4. Musaev B.B., Ishimov B.A., Brass usulida suzuvchilarining oyoq kuchini oshirishga tavsiya etilgan eksperiment mashqlarning

samaradorligini tadqiq etish, Sport mashg'ulotlari: texnika, taktika, usuliyot, 202, № 7, 21-23.

5. Ruziev A., Yosh suzuvchilarni ixtisoslashtirilgan bazaviy tayyorgarlik bosqichiga saralash samaradorligini belgilovchi omillar, Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar, doi journal 10.26739/2181-9513, 2022, №6, 33-36.

6. Toshtemirova, L., & Zoitova, G. (2023). DEVELOPMENT OF THE ENDURANCE OF THE SWIMMER IN THE CRAWL METHOD. Modern Science and Research, 2(12), 527–533. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/27007>